

# OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA KREDIT-MODUL TIZIMINI JORIY ETISHNING USTUVOR JIHATLARI

---

*Nosirova Dilnoza Toir qizi*

*JDPI, Matematika o'qitish metodikasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagogika oliy o'quv yurtlarida kredit – modul tizimining o'rni va ahamiyati; ustuvor tomonlari; o'ziga xos xususiyatlari, oliy ta'lim tizimiga kredit-modul tizimining joriy etilishining amaldagi tizimdan farqli va ustuvor tomonlari ilmiy-metodik jihatdan asoslab berilgan.

**Tayanch so'z va iboralar:** Kredit sistemasi, kredit – modul tizimi, ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System), Bolonya deklaratsiyasi, kredit o'qitish texnologiyasi, pedagogika oliy o'quv yurtlarida kredit-modul tizimi, mustaqil ta'lim, HEMIS platformasi.

## **Annotation**

This article discusses the role and importance of the credit-module system in pedagogical universities; specific features, scientific and methodological substantiation of the advantages and disadvantages of the introduction of a credit-module system in the higher education system from the current system.

**Key words and phrases:** Credit system, credit-module system, ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System), Bologna Declaration, credit teaching technology, credit-module system in pedagogical universities, independent education, HEMIS platform.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida jadallik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida oliy ta'lim muassasalarida bosqichma-bosqich kredit-modul o'qitish tizimiga o'tish ishlari samarali amalga oshirilmoqda. Xususan, 2030 yilgacha kredit-modul tizimi joriy etiladigan oliy ta'lim muassasalari sonini 85 taga yetkazish rejalashtirilganligining o'zi ham mazkur jarayonlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar naqadar keng ko'lamli tus olishi mumkinligidan dalolat beradi.

Kredit-modul tizimining ko‘plab rivojlangan davlatlar tan olgan Bolonya tizimi deklaratsiyasiga 48 davlat a‘zo hisoblanib, GPA (diplom yoki attestatning o‘rtacha ko‘rsatkichi) baholash mezonining qo‘llanilishi, akademik mobillik hamda xalqaro darajada integratsiyalashuvning yuqori darajada ta‘minlanishi tizimning o‘ziga xos muhim ko‘rsatkichlaridir. Mazkur tizimni amaliyotga joriy qilgan davlatlarda oliy ma‘lumot to‘g‘risidagi diplomlar xalqaro miqyosda tan olinadi, talabalar va professor-o‘qituvchilar uchun akademik mobillik va xalqaro aloqalar uchun katta imkoniyatlar ochiladi, ilg‘or tajribalar asosida tayyorlangan raqobatbardosh kadrlarga mehnat bozorida talab yuqori bo‘ladi.

Kredit-modul – o‘qitishni uzviy bog‘liqlikdagi modullarini yoki modullar blokini o‘zlashtirish uchun talabalarning zarur bo‘lgan o‘quv yuklamasini o‘lchash birligi sifatida modulli o‘qitish texnologiyalari va kreditlarning birligiga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etish tizimidir.

Mamlakatimizda Bolonya jarayoni ta‘lim tizimi, shuningdek, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Janubiy Korea, Kanada hamda Yaponiya kabi bir qator ta‘lim tizimi rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rgangan holda global ta‘lim integratsiyasini amalga oshirilishi xorijiy mamlakatlar bilan oliy ta‘lim sohasidagi aloqalarni yanada kengaytirishni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar zamirida ta‘lim muassasalarida zamonaviy va sifatli ta‘limni innovatsion uslublar asosida amalga oshirishda normativ-huquqiy hujjatlar ham islohotlarga mutanosib ravishda takomillashtirib borilmoqda. Jumladan, 2019 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonun, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni O‘zbekistonda yangi ta‘lim tizimini yaratish uchun xizmat qilmoqda. Bundan buyon oliy ta‘lim standartlari xorijiy tajriba asosida takomillashtiriladi, ta‘lim yo‘nalishlari va o‘qitiladigan fanlar qayta ko‘rib chiqiladi. Mutaxassislikka aloqasi bo‘lmagan fanlar soni 2 barobar qisqartiriladi va oliy ta‘limda o‘quv jarayoni kredit-modul tizimiga o‘tkaziladi.

Jizzax davlat pedagogika institutining O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2020/2021 o‘quv yilida amalga oshirish bo‘yicha Yo‘l xaritasi qabul qilingan. Mazkur hujjatda 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab 1-bosqich talabalari uchun o‘quv jarayonini zamonaviy ta’lim texnologiyalariga asoslangan kredit-modul tizimiga o‘tkazish belgilangan. Shuningdek, yangi o‘quv yilidan professor-o‘qituvchilarning o‘quv yuklamalarini yanada optimallashtirish, kasbiy faoliyatga zamonaviy axborot-kommunikatsion hamda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish masalalari muhim va ustuvor masala sifatida qaralmoqda.

Quyida rivojlangan davlatlar ta’lim tizimidagi ilg‘or tajribalar asosida Jizzax davlat pedagogika institutida joriy etilgan kredit-modul tizimining o‘ziga xos xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Kredit – ta’limning o‘lchov birligi bo‘lib, talaba uchun o‘zlashtiriladigan ta’lim dasturi hamda u bilan bog‘liq mehnat xarajatlari hajmini ifodalaydi. Ya’ni, talaba ma’lum fanni o‘zlashtirishi uchun ma’lum miqdordagi o‘quv yuklamasini bajaradi hamda olgan bilim, malaka va ko‘nikmasiga asosan ma’lum kreditlarni qo‘lga kiritadi.

Respublikamiz oliy ta’lim tizimida kredit-modul tizimi asosida tashkil etishda asosan ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System (Evropa kredit transfer tizimi) ga o‘tishga ustuvorlik berilmoqda.

Kredit-modul tizimining amaldagi o‘quv jarayonidan farqli jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Xususan, ECTS (Evropa kredit transfer tizimi)ga muvofiq bakalavr darajasida talaba 180-240 kredit fanlarni o‘zlashtirishi (3 yillik o‘qish muddatida 180 kredit, 4 yillik o‘qish muddatida 240 kredit) talab etiladi. Mos ravishda o‘rtacha semestrlik kredit miqdori 30 kreditni, yillik kredit miqdori 60 kreditni tashkil etadi. Bunda 1 kredit 25-30 soat fan yuklamasini o‘z ichiga oladi.

Amaldagi o‘quv jarayoni grafigida semestrda o‘quv haftalari soni 18 haftani tashkil etsa, kredit-modul tizimiga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etish

grafigida bir semestr uchun o'qish davri o'rtacha 15 hafta, yillik haftalar soni 40-42 haftani tashkil etadi.

Semestrlar boshlanishidan oldingi bir haftada talabalar tomonidan fanlarni hamda fan o'qituvchilarini o'z ixtiyorlariga ko'ra tanlash uchun 1 hafta qo'shimcha muddat (kredit tizimiga kirish) ajratilmoqda.

Bakalavr ta'lim dasturi bo'yicha 240 kredit hajmdagi fanlarni o'zlashtirish uchun talabalarga 4 yildan 6 yilgacha muddat beriladi. Ya'ni, ma'lum sabablarga ko'ra, ayrim fanlarni o'zlashtirmagan yoki yetarli hajmdagi kreditni to'plamagan talabaga keyingi semestr yoki keyingi o'quv yilida mazkur o'zlashtirilmagan kreditlar hajmi uchun to'lovni amalga oshirish hisobiga fanlarni o'zlashtirishga imkon beriladi.

Fanlarni qayta o'zlashtirishda, agar talaba mazkur fan bo'yicha mashg'ulotlarning 80 foizidan ortig'ida ishtirok etgan bo'lsa, fan uchun ajratilgan kreditning 50 foizi miqdorida to'lovni amalga oshirishiga ruxsat etiladi. Agar o'zlashtirilmagan fanlar soni 3 tadan ko'p bo'lsa hamda talabaning davomat ko'rsatkichlari 80 foizdan pastroq bo'lsa, o'zlashtirilmagan fanlar bo'yicha kreditlar hajmiga to'liq to'lovni amalga oshiradi.

Amaldagi bakalavriyat ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalaridagi mavjud 4 fanlar (gumanitar va tabiiy-ilmiy, umumkasbiy, ixtisoslik, qo'shimcha fanlar) bloklari kredit-modul tizimida 2 tagacha (majburiy fanlar, tanlov fanlar) qisqartirildi.

Amaldagi bakalavriyat ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejalarida gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar 25-30, umumkasbiy fanlar 35-50, ixtisoslik fanlari 15-25, qo'shimcha fanlar 4-6 foizni tashkil etgan bo'lsa, kredit-modul tizimiga asoslangan o'quv jarayonida majburiy fanlar bloki 60-80 foizni, tanlov fanlar bloki 20-40 foizni tashkil etishi rejalashtirilmoqda.

Magistratura mutaxassisliklarida nazariy ta'lim hajmi fanlar bloklari bo'yicha mos ravishda, majburiy fanlar moduli 60 foizni, tanlov fanlar moduli 40 foizni tashkil etishi rejalashtirilmoqda.

Amaldagi o'quv rejalari bloklardagi tanlov fanlarini belgilash majburiylik xarakteriga ega bo'lgan bo'lsa, joriy etilayotgan yangi tizimda talabalar tomonidan

tanlov fanlari ularning qiziqishlari asosida tanlanishi bilan bir qatorda ikkinchi mutaxassislikni olish imkonini beradigan tartib joriy etilishi kutilmoqda.

Auditoriya mashg'ulotlari hamda mustaqil ta'lim soatlari nisbati amaldagi 56/44 nisbatdan 50/50 nisbatga o'zgartiriladi, ya'ni mustaqil ta'lim soatlari sezilarli darajada oshiriladi.

Bakalavr ta'lim yo'nalishlari amaldagi o'quv rejasidagi asosiy fanlar soni 28 tadan 24 taga qisqartiriladi hamda bir semestrda fanlar soni 6-7 tadan oshmasligiga erishiladi. Bu talabalar tomonidan semestr davomida fanlarni o'zlashtirishlarida yengillik va qulaylik yaratadi, ya'ni bir semestrda 9-10 fanni o'zlashtirish majburiyati bekor qilinadi. Shuningdek, modul fanlari bo'yicha semestrda 3 fan modulini birinchi 8 haftalikda, qolgan 3 fan modulini keyingi 8 haftalikda o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi.

Talaba birinchi bosqichga qabul qilinganda unga institutda joriy qilingan "HEMIS" maxsus elektron ta'lim platformasining login-parollari beriladi.

Mazkur tizim platformasida 1 fandan 4-5 nafar professor-o'qituvchi dars beradi. Talabalar elektron ta'lim platformasi orqali har bir professor-o'qituvchining shaxsiy sahifasiga tashrif buyurib, uning ma'ruza o'qiydigan fani bo'yicha, xususan, professor-o'qituvchining sillabusi, dars o'tish metodlari, qaysi mavzular doirasida dars o'tishi, baholash uslubi, ilmiy izlanish yo'nalishlari, o'quv-uslubiy ishlanmalari, kasbiy yutuqlari va boshqa ta'lim jarayoniga oid o'zini qiziqtirgan barcha savollari bo'yicha, to'liq ma'lumot olishi mumkin bo'ladi. Talabaga shu ma'lumotlar asosida mustaqil qaror qabul qilgan holda professor-o'qituvchini tanlash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, professor-o'qituvchini tanlash jarayonini samarali tashkil etish hamda yanada soddalashtirish maqsadida institutning rasmiy veb-sayti([www.tfi.uz](http://www.tfi.uz))dagi maxsus (<http://vm.tfi.uz>) ruknga tashrif buyurib, professor-o'qituvchilar tomonidan oldindan tayyorlangan video ma'ruzalar bilan tanishgan holda tanlovni amalga oshirish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratiladi. Institutda ta'lim jarayonining bunday tashkil etilishi har bir professor-o'qituvchidan talabalar ishonchi va e'tiborini qozonish

uchun o‘z ustida doimiy izlanishni hamda malakasini oshirib borishni talab etadi. Aks holda, talabalar ishonchini qozonolmagan professor- o‘qituvchining o‘quv yuklamasi tabiiy ravishda qisqarishi ehtimoli paydo bo‘ladi.

Institutda kredit- modul tizimini joriy etishda kutilayotgan ijobiy o‘zgarishlardan yana biri talabalar mustaqil ta’limi hamda masofaviy ta’lim shakllari va usullarining keng qo‘llanilishidir. Joriy o‘quv yilida haftalik o‘qish kunlari 5 kunni tashkil etgan bo‘lsa, yangi o‘quv yilidan haftalik 4- 5 kunlik o‘qishga o‘tish, qolgan 1 kun mustaqil ta’lim (masofaviy shaklda), yana bir kun esa amaliyot ob’ekti yoki ijtimoiy soha ob’ektlarida tashkil etilishi rejalashtirilmoqda. Joriy o‘quv yilida pandemiya sharoitida masofaviy ta’limni tashkil etish bo‘yicha o‘rttirilgan tajriba uni, kelgusi o‘quv yillarida ta’lim jarayonida keng qo‘llashga imkon beradi. Bunda institutda tashkil etilgan masofaviy ta’lim platformasi ([www.tfi.uz](http://www.tfi.uz) sayti: videoma’ruzalar, ARM fondi, “HEMIS” elektron platformasi), shuningdek, telegram ijtimoiy tarmog‘i, elektron video-aloqa dasturlari (Zoom, Facebook, Telegram, Googleclass) va boshqa shu kabi vositalar imkoniyatlaridan samarali foydalaniladi.

Kredit-modul tizimining alohida xususiyatlaridan biri bo‘lgan o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi (GPA (Grade Point Average)ning qo‘llanilishi kadrlar iste’molchilari tomonidan bitiruvchilar bilimi, mutaxassislikni o‘zlashtirish darajasini baholashga imkon berishi bilan bir qatorda kelgusida o‘qishni davom ettirish, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun ham asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Xorij tajribasida ish beruvchilar tomonidan ta’lim oluvchining o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi (GPA)ga alohida e’tibor qaratilishi talabalar tomonidan bu ko‘rsatkichni muntazam oshirib borishga motivatsiya bo‘lib xizmat qiladi.

Institutda kredit-modul tizimini joriy etishdagi ijobiy holatlardan yana biri — bu talabalar akademik mobilligining ta’minlanishidir. Akademik mobillik talabalar almashinuvi asosida xorijiy hamda mahalliy oliy ta’lim muassasalarida davriy o‘qishi bo‘yicha o‘zlashtirgan kreditlarini tan olinishini anglatadi. Jizzax davlat pedagogika institutining maqsadli ko‘rsatkichlariga muvofiq kelgusida ko‘plab talabalarning yetakchi xorijiy oliy ta’lim muassasalarida semestrlik o‘quv



kurslariga yuborilishida akademik mobillikning ta'minlanishi, talabalarda ta'lim dasturini o'zlashtirishda (kerakli kreditlarni jamg'arishda) muammolar kelib chiqishining oldini oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, rivojlangan davlatlar ta'lim tizimidagi ilg'or tajribalar asosida Jizzax davlat pedagogika institutida o'quv jarayonining kredit-modul tizimiga bosqichma-bosqich o'tkazilishi ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi, xalqaro ta'lim tizimiga integratsiyalashuvni kuchaytiradi va kengaytiradi. Bu esa zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan sifatli kadrlar tayyorlanishiga hamda institut reytingining mahalliy hamda xalqaro darajada yanada yuksalishiga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nosirova, D. (2020). MODULLI KREDIT TIZIMIDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING AHAMIYATI. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
2. Nosirova D., Pardayeva Z., Xummamatova K. The main forms of organization of independent work of students in the credit-module system. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT)* november, 2020.
3. Qizi, N. D. T., Uktamovna, P. Z., & Khairullaevna, K. K. (2020). The Main Forms of Organization of Independent Work of Students un the Credit-Module System. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 23(2), 529-531.
4. Nosirova M., Nosirova D. Modulli kredit tizimida talabalar mustaqil ishlarining axamiyati. Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv: muammo va echimlar. Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami I. Andijon-2020.
5. Izyetayeva G.K. Credit technology teaching - mathematics education as a factor of development. Republican scientific-practical conference on "Actual problems of mathematics and its teaching", Andijan - November 8-9, 2011, pp. 149-151.

6. Тищенко, Е.А. Организация системы кредитного обучения в техническом вузе. Автореферат. канд.пед.наук: 25.10.2007 Ростов-на-Дону, 2007. -21ст.